

ANTROPONIMLARNING YASALISH USULLARI

Tursunboyeva Gulzoda Bekmirza qizi

NamDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti

Tel: +998972823090

Email: abduhamidovaqulzoda02@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tili onomastik tizimining muhim qismi bo'lgan antroponimlarning tuzilishi, yasash usullari, ularning lingvistik, semantik asoslari tahlil qilinadi. Antroponimlarning morfologik, leksik-semantik, sintaktik yo'llar bilan yasalishi, shuningdek, tarixiy, diniy va ijtimoiy omillarning shaxs nomlarining shakllanishiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponim, antroponimika, nom yasalishi, affiksatsiya, semantika.

Tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan onomastika maxsus nomlarni o'rganadi. Onomastika (yunon. onomastikē – nom qo'yish san'ati) – atoqli otlarning kelib chiqishi, tuzilishi, semantikasi, ijtimoiy-lingvistik funksiyalari va tarixiy taraqqiyotini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir.¹ Onomastika so'nggi o'n yilliklarda alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanib, tilshunoslikning mustaqil va muhim bo'limiga aylangan. Til tizimida mavjud nomlarning kelib chiqishi, tuzilishi, va vazifasini o'rganuvchi soha onomastika bo'lsa, uning tarkibida shaxs nomlari bilan shug'ullanuvchi antroponimika alohida ahamiyat kasb etadi. Antroponim so'zi grekcha so'z bo'lib, kishilarga berilgan atoqli otlar ma'nosini bildiradi. Muayyan bir tildagi antroponimlar majmui antroponimiya deb yuritiladi. Tilshunoslikda antroponimlarni tadqiq qiluvchi maxsus soha bo'lib, u antroponimika deb ataladi.

O'zbek tili antroponimik tizimi tarixiy shakllanishi, nominativ asoslari va lingvokulturologik vazifalariga ko'ra quyidagi asosiy birliklarni o'z ichiga oladi:

1. Ismlar – shaxsga berilgan asosiy nominativ birliklar.
2. Laqablar – shaxsning tashqi ko'rinishi yoki xulq-atvoriga asoslangan qo'shimcha nom.
3. Taxalluslar – ijodkorlar, faylasuflar, shoirlar tomonidan qabul qilingan ijodiy nomlar.
4. Genealogik nomlar – “qizi”, “o'g'li”, “ibn”, “binni” kabi nasab bildiruvchi birliklar.
5. Familiyalar – XX asr boshlaridan rus tilidan kirib kelgan -ov/-ev shaklli familiyalar.²

O'zbek onomastik tizimida antroponimlar tarixiy, etnik, madaniy hamda diniy omillar bilan shakllanib, o'ziga xos antroponimik qatlamni hosil qilgan. Kishi nomlari xalqning urf-odatlar, madaniyati va tarixiy xotirasining muhim ko'rinishidir. Antroponimlar nafaqat nominativ, balki ijtimoiy-lingvistik vazifalarni ham bajaradi:

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent

² E.A.Begmatov. O'zbek tili antroponimikasi. O'zbekiston fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti. Toshkent-2013.1-bob 11-b.

shaxsning jamiyatda tanilishini ta'minlaydi, shaxsning jinsini ko'rsatadi, tarixiy va diniy qadriyatlarni aks ettiradi. O'zbek antroponimlari etnik-tarixiy, diniy omillar asosida shakllangan.³

Hozirgi tilshunoslikda shaxs nomlarini tizimli o'rganish masalasi onomastikaning mustaqil va muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Xususan, antroponimika shaxsni nomlash jarayonining lingvistik, ijtimoiy va madaniy asoslarini tadqiq etadi. Antroponimlar til tizimida oddiy leksik birlik sifatida emas, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va mentalitetini aks ettiruvchi nominativ birlik sifatida namoyon bo'ladi. Antroponimlarning yasashini o'rganish nominatsiya nazariyasi, so'z yasashi hamda semantika bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu masala o'zbek tilshunosligida ham dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi.

Antroponimlar o'zbek tilining lug'aviy boyligi bo'lgani sababli o'zbek tilining yasash qonuniyatlariga bo'ysunadi. Hozirgi o'zbek tilida antroponimlar tuzilishiga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1. Sodda tuzilmali antroponimlar.
2. Yasama tuzilmali antroponimlar.
3. Qo'shma tuzilmali antroponimlar.⁴

Sodda antroponimlar mohiyatan tub nomlardir. Masalan, Kumush, Lola, Go'zal, Anvar kabilar. Ammo o'zbek tilida bu kabi antroponimlarni to'laqonli sodda tuzilmali antroponimlar deb bo'lmaydi. Chunki, o'zbek tilida ismlar bir qator antropoforantlarni qabul qilib, boshqa shaklga o'tib turadi: Kumush -Kumushxon, Lola - Lolaxon, Go'zal – Go'zaloy, Anvar - Anvarjon kabi.

Yasama tuzilmali antroponimlar quyidagi usullar orqali yasaladi:

1. Morfologik usul.

Morfologik usul antroponimlar yasashida eng mahsuldor vosita hisoblanadi. O'zbek tilida affiksatsiya orqali yasalgan antroponimlar keng tarqalgan:

- ijtimoiy-madaniy affikslar: -bek, -boy (Otabek, Yo'ldoshboy);
- hurmat va mehrni bildiruvchi affikslar: -jon, -xon (Guljon, Mohiraxon);
- diniy mazmundagi affikslar: -qul, -bergan (Xudoyqul, Ollabergan).

Mazkur affikslar antroponimning semantik yukini kuchaytirib, nom egasiga nisbatan ijtimoiy munosabatni ifodalaydi.

2. Leksik-semantik usul

Leksik-semantik usulda antroponimlar umumtil leksikasidagi so'zlar asosida shakllanadi. Bunda nomning semantik motivatsiyasi muhim hisoblanadi:

- abstrakt tushunchalar: Saodat, Kamol;
- ijobiy sifatlar: Jasur, Doniyor;
- tabiat va kosmik obyektlar: Bahor, Yulduz.

³ G.B.Tursunboyeva. O'zbek tili onomastik tizimida antroponimlar. Ilmiy maqola. Yangi O'zbekiston, Yangi tadqiqotlar jumali. Volume 3 Issue 7 December 2025. <https://phoenixpublication.net/> Online ISSN: 3030-3494

⁴ E.A.Begmatov. O'zbek tili antroponimikasi. O'zbekiston fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti. Toshkent-2013.4-bob 217-b

Bu turdagi nomlar ko'pincha bolaning kelajakdagi fazilatlariga bo'lgan ijtimoiy kutuvni ifodalaydi.

3. Sintaktik yasali

Sintaktik yo'l bilan yasalgan antroponimlar komponentlararo semantik birlik asosida yuzaga keladi:

- teoforik nomlar: Abdulla, Abdulaziz;
- predikativ tuzilmalar: Xudoyberdi, Tangribergan.

Bunday nomlar diniy e'tiqod va an'anaviy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, antroponimlarning yasaliishi tilning nominativ imkoniyatlarini namoyon etuvchi murakkab jarayon bo'lib, u lingvistik va ekstralingvistik omillarning uzviy uyg'unligi natijasida yuzaga keladi. O'zbek antroponimiyasi milliy madaniyat, tarixiy xotira va diniy qarashlarning til vositasida ifodalanish shaklidir. Shu nuqtai nazardan o'zbek tili onomastik tizimida antroponimlarning ilmiy jihatdan o'rganilishi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, kelgusida ham chuqur tadqiqotlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.S. Kenjayeva. O'zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingvistik tadqiqi. Avtoreferat. Toshkent-2011
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.
3. E.A.Begmatov. O'zbek tili antroponimikasi. O'zbekiston fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. Toshkent-2013.1-bob 11-b.
4. N.Nazarova. Antroponimlarning o'rganilishi. Ilmiy maqola. International Scientific Conference, December 18-19.2021
5. X.Xakimov. Antroponimlarning tilshunoslikda o'rganilish taraqqiyotiga doir. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. SJIF 2023=6.131 / ASI Faktor =1.7. (E)ISSN: 2181-1784. 3(12) Dec.,2023
6. X.Kadirova. O'zbek ismlarining lingvistik tahlili. Ilmiy risola. Toshkent-2023.
7. G.B.Tursunboyeva. O'zbek tili onomastik tizimida antroponimlar. Ilmiy maqola. Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. Volume 3 Issue 7. <https://phoenixpublication.net/>. Online ISSN:3030-3494. December 2025.
8. <https://arxiv.uz>
9. <https://www.ziyouz.com>